



**BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN DARSdan TASHQARI  
TADBIRLAR ORQALI O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHUVGA  
YO‘NALTIRISH**

*Sevinch Azimova*

*Qarshi davlat universiteti,*

*Pedagogika fakulteti,*

*Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada darsdan tashqari tadbirlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiylashuvi jarayonidagi o‘rni, ahamiyati va shakllari yoritiladi. Tadbirlarning bolalarning shaxsiy rivojlanishi, jamoada ishlash ko‘nikmalari va ijtimoiy tajriba orttirishidagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, tajriba asosidagi takliflar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** darsdan tashqari tadbir, ijtimoiylashuv, boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, hamkorlik.

**Abstract.** This article discusses the role, importance and forms of extracurricular activities in the socialization process of primary school students. The role of activities in the personal development of children, teamwork skills and social experience is analyzed. Suggestions based on experience are also given.

**Keywords:** extracurricular activities, socialization, primary education, upbringing, cooperation.

Hozirgi davrda ta’lim jarayonida bolani faqat bilim bilan qurollantirish yetarli emas. Uning jamiyatdagi o‘rnini topishi, o‘z fikrini erkin ifodalashi, muloqotda bo‘lishi hamda jamoaviy faoliyatga kirishishi uchun ijtimoiylashuv jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu jarayonni boshlang‘ich sinfdanoq shakllantirish kerak bo‘ladi. Bu borada darsdan tashqari tadbirlar asosiy vosita sifatida e’tirof etiladi.



Boshlang‘ich ta’limda darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarni jamoada ishslash, o‘z fikrini erkin ifoda etish, o‘zaro hurmat va hamkorlik kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalar bilan tanishtirish imkonini beradi. Bu tadbirlar bolalarda ijtimoiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishni oshirib, ular orasida do‘stona munosabatlarni shakllantiradi.

Boshlang‘ich yoshdagi bolalar ko‘pincha o‘z fikrini ochiq bildirishga qiynaladi, yangi muhitga moslashishi sekin kechadi. Shu bois, darsdan tashqari tadbirlar bolaning psixologik jihatdan ochilishi, o‘z tengdoshlari bilan yaqinlashuvi uchun qulay sharoit yaratadi. Jamoada harakat qilish, turli o‘yinlarda ishtirok etish, guruhli loyihalarda faol bo‘lish ularning psixologik barqarorligini oshiradi.

Ijtimoiylashuv – bu shaxsning jamiyatdagi odob-axloq, muloqot, o‘zaro munosabatlar me’yorlarini o‘zlashtirish jarayonidir. Boshlang‘ich ta’limda bu jarayon o‘qituvchi, sinfdoshlar, oila a’zolari va keng jamoatchilik bilan aloqalar orqali yuzaga keladi. Darsdan tashqari tadbirlar bu darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan tarbiyaviy, madaniy, sport, ijodiy faoliyatlar majmuyidir. Ular orqali bolalar quyidagilarga erishadi:

- jamoada ishslashni o‘rganadi;
- o‘z fikrini erkin bayon qilishga harakat qiladi;
- mas’uliyatni his qiladi;
- o‘zini namoyon qilish imkoniga ega bo‘ladi;
- do‘stlik, hamkorlik, hurmat kabi qadriyatlarni his etadi.

Darsdan tashqari faoliyatlar nafaqat o‘quvchining jamoa bilan munosabatini shakllantiradi, balki ularning ichki dunyosini mustahkamlaydi. Bunday tadbirlar orqali o‘quvchilar o‘zini kashf etadi, hayotga nisbatan faol, ijobiy qarashni shakllantiradi. Ayniqsa, ijodiy mashg‘ulotlar – rasm chizish, sahna ko‘rinmalari yaratish, qo‘g‘irchoq teatri kabi faoliyatlar bolalarda hissiy-intellektual uyg‘oqlikni oshiradi. Bu esa ularning kelgusidagi ijtimoiy moslashuvchanligiga poydevor bo‘ladi.

Shuningdek, darsdan tashqari faoliyatlarda o‘quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Jamoat oldida chiqish qilish, badiiy



matnlarni ifodali o‘qish, suhbat qurish kabi mashg‘ulotlar orqali ular o‘z fikrini ravon va tushunarli ifodalashga o‘rganadi. Bu esa ijtimoiylashuvning muhim jihatlaridan biridir, chunki zamонавија jamiyatda muloqotga kirishish qobiliyati shaxsiy muvaffaqiyat kalitlaridan biri hisoblanadi.

Darsdan tashqari tadbirlar, ayniqsa, inkluziv ta’lim oluvchi o‘quvchilar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Turli qobiliyatga ega bolalarning umumiy faoliyatda birgalikda ishtirok etishi ular o‘rtasida bag‘rikenglik, mehr-oqibat, tenglik va hamjihatlik fazilatlarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bu yondashuv sog‘lom bolalarda ham boshqalarni tushunish, empatiya qilish, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun quyidagi darsdan tashqari tadbirlar samarali hisoblanadi:

Darsdan tashqari tadbirlar nafaqat bilim va madaniyatni boyitadi, balki o‘quvchining ruhiy-psixologik holatini, ichki dunyosini ham boyitishga xizmat qiladi. Bola o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglaydi, o‘zini jamoaning bir a’zosi sifatida his qiladi. Ayniqsa, sahna chiqishlari, rolli o‘yinlar, viktorinalar, badiiy kechalar, sport musobaqalari, ekskursiyalar orqali ularning muloqot madaniyati, ijtimoiy faolligi, o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlari rivojlanadi. Bunday tadbirlar orqali bolalarda mas’uliyat, liderlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi sifatlar shakllanadi. Shu jihatdan qaraganda, darsdan tashqari faoliyatlar maktab va jamiyat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. U o‘quvchini hayotga, odamlar bilan muloqotga, jamoaviy mehnatga, umumiy qadriyatlarga tayyorlaydi. O‘qituvchi esa bu jarayonda yo‘lko‘rsatuvchi, yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi bo‘lishi zarur. Faoliyat mazmunan boy, maqsadga yo‘naltirilgan, bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Ana shunda darsdan tashqari tadbirlar haqiqiy tarbiyaviy quvvatga aylanadi.

Darsdan tashqari tadbirlar mazmunida milliy qadriyatlар, xalq og‘zaki ijodi, ajdodlar merosidan namunalar berilishi bolalarda vatanparvarlik, xalqchil ruh, o‘zligiga hurmat kabi ijtimoiy va axloqiy fazilatlarni mustahkamlaydi. Shu bois, tadbirlar faqat ko‘ngilochar yoki bayramona tusda emas, balki ma’naviy-ma’rifiy



jihatdan puxta rejalashtirilgan bo‘lishi lozim. Masalan, Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan tadbirlarda milliy liboslar, xalq kuy-qo‘sishlari, qadimiylar urf-odatlar aks ettirilsa, bu bolalarning milliy o‘zlikni anglashiga xizmat qiladi. Shuningdek, adiblar tavalludiga bag‘ishlangan badiiy kechalar, kitobxonlik musobaqalari orqali ularda estetik did, adabiyotga qiziqish, fikrni ifodalash madaniyati shakllanadi.

Tadbirlarni bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda rejalashtirish, har bir bolani faol ishtirokchi sifatida jalg qilish, tadbirga ota-onalarni ham jalg etish orqali ijtimoiylashuv doirasini kengaytirish kerak. Ota-onalarni tadbirlarga jalg qilish ijtimoiylashuv jarayonining doirasini kengaytiradi. Ota-onsa farzandini maktab muhitida, jamoadagi munosabatlarda kuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa oilaviy tarbiya bilan maktab tarbiyasi o‘rtasida uzviylikni ta’minlaydi. Ochiq darslar, oilaviy bellashuvlar, ota-onalar ishtirokidagi badiiy tadbirlar o‘quvchilarni ikki muhim ijtimoiy institut – maktab va oilani bir butun deb his qilishiga yordam beradi.

Bunday tadbirlarni tashkil etishda o‘qituvchining roli beqiyosdir. U har bir tadbirga mas’uliyat bilan yondashib, o‘quvchilarning teng va faol ishtirokini ta’minlashi, ularni ruhlantirishi, qo’llab-quvvatlashi, tashabbuslarini qadrlashi lozim. Shuningdek, tadbirlarni bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish, ularni qiziqtira oladigan, ularning hayotiga bevosita daxldor mavzulardan tashkil qilish katta natijalar beradi.

Bugungi kunda darsdan tashqari faoliyatning shakl va vositalari ham tobora yangilanmoqda. Zamonaviy pedagoglar turli interaktiv metodlardan foydalanib, o‘quvchilarni ijodiy loyihalar, media tadbirlar, ekologik aksiyalar, madaniy ekspeditsiyalar orqali ijtimoiy faoliyatga jalg etishmoqda. Bu esa ularning mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish, o‘zining jamiyatdagi rolini anglash kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, darsdan tashqari tadbirlar o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda, ularda zarur ijtimoiy ko‘nikma va fazilatlarni shakllantirishda muhim vosita sanaladi. Bunday tadbirlar har bir o‘qituvchining ichki dunyosini boyitib, uni jamiyatning faol va ongli a’zosiga aylantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’lim tizimida darsdan tashqari faoliyatlarga jiddiy e’tibor



qaratish, ularni samarali tashkil etish va doimiy tahlil qilish zamon talabi hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Boshlang'ich ta'limga zamonaviy pedagogik texnologiyalar", T.G'afforova, Toshkent-2016.
2. "Boshlang'ich ta'limga" jurnali, 2017-yil, 7-soni, 20-bet.
3. "Boshlang'ich ta'limga" jurnali, 2018-yil, 9-son, 8-bet.
4. "Mahoratli pedagog" jurnali, 2019-yil, 5-son, 26-bet.
5. "Modern pedagogical technologies in primary education", T. Gafforova Tashkent2016.
6. Journal of Primary Education, 2017, issue 7, page 20.